



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHA HARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Хоразм вилояти

Xorazm viloyati 220100, Urganch shahar, P.Maxmud ko'chasi, 46 uy. Tel: +998904387766, E-mail:
irada13@inbox.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: AVEZOV XURMAT BABADJANOVICH

Sana: 18-08-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 118484

Obyekt nomi «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Mexnat guli va Oq oltin MFY larda ichimlik suv tizimlarini qurish» ishchi loyihasi»

Buyurtmachi - «Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlari qurilishi buyicha IK» UK

Xorazm viloyati xududiy boshqarmasi

Bosh loyihachi - «Meridian loyiha» XK

Litsenziya 10.03.2022yil AL-001351-sonli litsenziya

Moliyalashtirish manbai - byudjet

Bosh pudratchi - tanlov savdolari natijasida

Qurilish turi yangi

Murojaat raqami: № 111702

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.06.2023 yildagi 49-sonli bayoni;

1.3. Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasining 03.07.2023 yildagi 1733-1733204-69689-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirigi.

1.4. "Xorazm suv taminoti" MChJning 27.06.2023 yildagi T-252-sonli texnik sharti;

1.5. Xorazm viloyati SEOvaJSXning 23.06.2023 yildagi 5-02370-sonli texnik sharti;

1.6. Xorazm viloyati FVBning 16.06.2023 yildagi 3/12-1158-sonli texnik sharti;

1.7. Xorazm viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining 20.06.2023 yildagi 14/431-sonli texnik sharti;

1.8. "Geodeziyachi" XK tomonidan tayyorlangan maydonni muhandislik-geologik sharoitlar xulosasi;

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydonining o'ziga xos xususiyatlari.

Tashqi havo harorati - -19°S .

Normativ shamol bosimi - 38kg/m^2 .

Normativ qor qatlami vazni - 50kg/m^2

Yer relyefi tekis.

Zilzilabardoshligi - 7-8ball.

Tuproqlarning mavsumiy muzlashining standart chuqurligi - 0,68 m.

Tuproq cho'kmaydi, seysmik xususiyatlariga ko'ra - 3 toifa.

Tuproq va yer osti suvlari portlend tsementidagi betonlarga korroziy ta'sir ko'rsatadi.

3.2. Tehnologik yechimlari.

Loyihalashtirilgan suv ta'minoti tarmoqlari quyidagilarni suv bilan ta'minlaydi:

- maishiy va ichimlik ehtiyojlari;
- ishlab chiqarish ehtiyojlari.

Suv ta'minoti darajasiga ko'ra, suv ta'minoti tizimi 2-toifaga kiradi.

Suv iste'moli kuniga 150 l/sut/kishini tashkil qiladi.

Loyihada PN-6 D-200mm, D-160mm, D-110mm., D-75mm polietilen quvurlardan yasalgan quvurni ko'zda tutadi, PN-10 D-63mm, D-50mm, D-40mm, D-32mm, D-25mm polipropilen quvurlardan yasalgan quvurni ko'zda tutadi, muhandislik tarmoqlari kesishish joylarida po'lat g'iloflar o'rnatiladi.

Loyiha turar-joy binolarini 20 mm diametrli suv hisoblagichini o'rnatish bilan loyihalashtirilgan tarmoqlarga ulashni nazarda tutadi. Suv hisoblagichlarni maxsus plastik qutilarga o'rnatish ko'zda tutilgan.

Tarmoq TP 901-09.11.84 ga muvofiq D-1500mm yig'ma temir-beton quduqlari qabul qilindi. Tarmoqning chuqurligi erdan quvur tubigacha 1,2-1,3 m.

Quvurlar uchun asos sun'iy (qumli).

Oq oltin MFY ni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun Sahovat STI joylashgan mavjud nasos stantsiyasiga 3 dona (1-guruh) miqdoridagi ko'p bosqichli vertikal markazdan qochma nasoslar o'rnatish ko'zda tutilgan.

3.3. Bosh reja.

Loyiha qilinayotgan ob'ekt Xorazm viloyati Bog'ot tumani Mexnat guli va Oq oltin MFY hududida joylashgan.

3.4. Yong'in xavfsizligi.

Tashqi yong'in o'chirishni ta'minlash uchun suv ta'minoti tarmog'iga yong'in gidrantlarini o'rnatish rejalashtirilgan. Yong'in gidrantlarini joylashtirish ikkita gidrantdan yong'in o'chirishni ta'minlaydi.

3.5. Atrof-muhit muhofazasi.

Suv ta'minoti tizimini sanitariya-epidemiologik ishonchliligini ta'minlash uchun sanitariya himoya zonasi ajratilgan. Hech qanday ifloslanish manbalari yo'q: chiqindixonalar, qabristonlar, mollar qabristonlari.

Tuproq va yer osti suvlarining agressiv (sulfat agressiyasi) ta'sirini oldini olish uchun yer bilan aloqa qiladigan barcha tuzilmalar va inshootlar izolyatsiya qilingan.

Ishlab chiqilgan unumdor tuproq qatlami alohida yig'indida saqlanadi va keyinchalik qayta to'ldirish uchun ishlatiladi.

Loyihani moliyaviy baholash.

Ob'ektning joriy narxlardagi narxi O'z.R. qurilish sanoati (Toshkent-2023 yilning 1-choragi) foydalanadigan moddiy-texnik resurslarning joriy narxlari Katalogi, birja bahosi va bozor sharoitlari, narxlar kelishuv bayonnomasi yordamida resurs usuli bilan aniqlanadi.

Buyurtmachining 07.08.2023 yildagi 344/01-sonli xatiga ko'ra ob'ektning taxminiy narxini aniqlashda quyidagi narx parametrlari qabul qilingan:

- o'rtacha soatlik ish haqi miqdori – 20753,1 so'm kishi/soat (shu jumladan, ijtimoiy sug'urta bo'yicha chegirmalar - 12%);
- pudratchining boshqa xarajatlari - 15,51%;
- buyurtmachi boshqa xarajatlari – 621000,000 ming.so'm;
- ob'ektni sug'urta qilish xarajatlari - 0,32%;
- tavakkalchilik koeffitsienti – 1,0.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Ushbu ishchi loyiha bo'yicha qo'shimcha muhandislik ta'minoti talab qilinmaydi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- buyurtmachi bilan;
- "Xorazm suv taminoti" MChJ;
- Bog'ot tumani qurilish bo'limi;
- SEO va JSH Bog'ot tumani bo'limi;
- Bog'ot tuman favqulotda vaziyatlar bo'limi;
- Bog'ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi;
- Bog'ot tuman kadastr agentligi;
- Bog'ot tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi;
- Bog'ot tuman ekologiya bo'limi;
- Bog'ot TETK;
- Bog'ot tuman elektr aloqa bog'lamasi;
- "Bog'ottumangaz" bo'limi;
- Bog'ot tuman Mexnat guli va Oq oltin MFY;

6. Ekspertiza natijalari.

6.1 Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish harajatlari va u bilan bog'liq harajatlarni ekspertizadan o'tkazilmaydi.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert hulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Ekspert tekshiruv natijalariga ko'ra ob'ektning umumiy qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) va buyurtmachining boshqa harajatlari bilan 8456408,431 ming.so'm miqdorida e'lon qilingan ishlar qiymati 1848,967 ming.so'mga kamaytirilib, 8454559,463 ming.so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

- qurilish materiallari	- 173,083 ming.so'm.
- ish haqi	- 107,485 ming.so'm.
- mashina va mexanizmlar	- 1144,070 ming.so'm.
- pudratchining boshqa harajatlari	- 220,961 ming.so'm.
- qurilish sug'urtasi	- 5,266 ming.so'm.
- QQS	- 198,101 ming.so'm.

6.3. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 20 sentabrdagi 4464-sonli qaroriga muvofiq buyurtmach boshqa harajatlari tarkibiga qurilish qiymatidan 0,05% to'lovi "Shaffof qurilish" MAT hisobiga o'tkazilishi va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «Xorazm viloyati Bog'ot tumani Mexnat guli va Oq oltin MFY larda ichimlik suv tizimlarini qurish» ishchi loyihasi ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda, buyurtmachi qabul qilgan ish hajmi va qiymatni belgilovchi parametrlarning chegaraviy harajatlarga quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini tasdiqlagan taqdirda ko'rib chiqqan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi:

Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'lchov birligi	Miqdori	
		Taqdim etilgan	Tavsiya etilgan
Qurilishning QQSiz joriy narxi	ming.so'm	6 995 900,384	6 994 249,521
Qurilishning QQS bilan joriy narxi (12%)	ming.so'm	7 835 408,431	7 833 559,463
Buyurtmachi boshqa harajatlari (fakt.)	ming.so'm	621 000,000	621 000,000
Qurilishning QQS va buyurtmachi harajatlari bilan joriy narxi	ming.so'm	8 456 408,431	8 454 559,463

7.2. Ko'rsatilgan narh shartnoma tuzish uchun asos emas.

7.3. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli, 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.4. Buyurtmachi ekspertizaning kamchiliklar va takliflari bo'yicha tuzatilgan loyiha-smeta hujjatlarini bosh pudratchi tashkilotga o'tkazilishini ta'minlaydi.

7.5. O'z.R. Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorini 5-bob 36-bandiga asosan ushbu ekspertiza xulosasi berilgan sanadan boshlab 2 yil davomida amal qiladi.

Mutahassis: B.Ro'zmetov

Bosh mutaxassis: MATYAKUBOV SHIXNAZAR KURAMBAEVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

YULDASHEV MUXAMMETJAN IBROGIMOVICH

Bekchanova Nellya Axatovna

RUZMETOV BAXTIER BEKBERGANOVICH

OTAJONOV NURMAMAT

KARIMOV UKTAMBEK YUSUPOVICH

42 Саманбай Договор_№1719938 [Faylni ko'rish](#)

42 Саманбай Договор_№1719938 [Faylni ko'rish](#)